

15-dars

Darsning mavzusi: Ma'nodosh so'zlar

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga ma'nodosh so'zlarni o'rgatish; so'zlarga so'roq bera olish ko'nikmasini o'stirish; talaffuz me'yorlariga rioya qila olish, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni insonni go'zal qiladigan kamgaplik, tartiblilik, do'stga sadoqat ruhida tarbiyalash; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning lug'atini boyitish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, "O'rgimchak to'ri" va "To'g'ri yoki noto'g'ri" ta'limiy o'yini.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish; navbatchi axboroti; kun, oy, yil yangiliklari.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Kichik "h" harfi ikki unsurdan tuzilgan bo'lib, birinchi unsurli usti halqali uzun tayoqcha, ikkinchi unsuri esa osti va usti ilmoqli kichik uzun tayoqcha shaklidan iborat.

Daftarga bir qator kichik "h" harfini va shu harf bilan bog'langan s o'zlarni yozadilar: havo, harf, handalak, havas

Uyga berilgan vazifa tekshiriladi. topshiriqni to'g'ri, bexato va husnixat bilan bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Qoida bilan tanishtiriladi. Ma'nodosh so'zlar shakli har xil, ma'nosi bir xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: osmon, ko'k, samo.

68-mashq og'zaki bajariladi. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga ma'nodosh so'zlar topiladi.

Bezori-shumtaka, to'polonchi;

Shikoyat- arz.

Indamadi-gapirmadi, aytmadi, bildirmadi.

Dam olish daqiqasi

Yomg'ir, yomg'ir yog'ma ko'p,

Toqatimiz qilding xo'p.

Yomg'ir, yomg'ir erinmas,

Lekin qo'lga ilinmas.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darslikda berilgan 69-mashq yozma bajariladi. Ma'nodosh so'zlar topilib, juftlab yoziladi.

G'alaba-zafar, go'zal- chiroyli, odam- inson, hamroh- yo'ldosh, bilim – ilm, dilbar – lobar, yuz – chehra, ho'l – shalabbo, taxt- muhayyo,

“O'rgimchak to'ri” ta'limiy o'yini. Bunda o'quvchilar jamoa bo'lib ishtirok etadilar. Birinchi o'quvchi tovush aytib, ipning uchini ikkinchi o'quvchiga beradi, u esa shu tovushdan boshlanadigan so'z aytadi. Uchinchi o'quvchi shu so'zga ma'nodosh so'z aytadi, to'rtinchi o'quvchi gap tuzadi. Shu tariqa o'quvchilar aylana tarzida o'rgimchak to'ri hosil qiladilar.

70-mashq

Quyida berilgan so'zlarning ma'nodoshlarini toping va ular ishtirokida so'z birikmalari tuzing. *Qaramoq, yugurmoq, yemoq, sakramoq.*

Qaramoq-qiyo boqmoq, yugurmoq-chopmoq, yemoq-iste'mol qilmoq, sakramoq-hatlamoq.

Darslikda berilgan 71-mashq og'zaki bajariladi.

“To'g'ri yoki noto'g'ri” ta'limiy o'yini orqali ertak mazmuni ochib beriladi. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga ma'nodosh so'zlar toptiriladi.

Gaplar	To'g'ri	Noto'g'ri
U bolalarini qo'shiq aytib tarbiyalar ekan.		

Chug'urchuq yoz tugaganidan xursand b o'libdi		
Qayin rosa harakat qilibdi, hatto barglari sarg'ayib ketibdi, biroq kuzni to'xtata olmabdi.		
Tog'terak kuzni to'xtatibdi.		
U daraxtlardan har yili kuzni to'xtatishni iltimos qilar ekan.		

V. Darsga yakun yasash va baholash

O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, guruhlardagi faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

72-mashq. Zid ma'noli so'zlar ishtirok etgan to'rtta maqol topib yozing. Shartiga ko'ra bajarib kelish topshiriladi.